



O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TARIX FANLARINI O'QITISHNING AHAMIYATI

Nabiiev Boxodir Muxamadumar o'g'li

Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o'qitish metodikasi kafedrasи o'qituvchi.

97 217 32 42 nabiievbohodi94@gmail.com

Abstrakt. Ushbu maqolada o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarix fanlarining o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Tarix darslarining didaktik imkoniyatlari, ularning yosh avlodda milliy g'urur, tarixiy xotira va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi roli asosli misollar bilan tahlil qilingan. Maqolada metodik yondashuvlar asosida tarix fani orqali vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish bo'yicha ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, tarix fanlari, yosh avlod, tarbiya, milliy g'urur, tarixiy xotira, metodika, milliy ong.

ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Боходир Набиев

Преподаватель кафедры социально-экономических наук и методики преподавания языков Центра педагогического мастерства Наманганской области

Абстрактный. В данной статье подробно освещается роль и значение исторических наук в воспитании учащейся молодежи в духе патриотизма. Анализируются дидактические возможности уроков истории, их роль в формировании у подрастающего поколения национальной гордости, исторической памяти и гражданской позиции на основе убедительных примеров. В статье предлагаются научно-теоретические и практические рекомендации по формированию патриотических чувств посредством преподавания истории с опорой на методические подходы.

Ключевые слова: патриотизм, исторические науки, молодое поколение, воспитание, национальная гордость, историческая память, методика, национальное сознание.

EFFECTIVE WAYS OF USING MODERN TEACHING METHODS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Bokhodir Nabiiev

Teacher at the Department of Socio-Economic Sciences and Language Teaching Methods at the Center for Pedagogical Excellence in Namangan Region



Abstract. This article extensively highlights the role and significance of history as a subject in fostering patriotism among students. The didactic potential of history lessons and their role in shaping national pride, historical memory, and civic consciousness in the younger generation are analyzed with well-founded examples. The article puts forward scientific-theoretical and practical recommendations for developing patriotic values through the teaching of history, based on methodological approaches.

Keywords: patriotism, history studies, young generation, education, national pride, historical memory, methodology, national consciousness.

KIRISH

O'quvchilarda vatanga bo'lgan muhabbatni yoki vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishda tarix va tarbiya fanlarini o'rni beqiyos hisoblanadi. Albatta, tarix fanlarini o'qitish orqali o'qitish orqali o'tmishimizdagi buyuk ajdodlarimizning amalga oshirgan buyuk ishlari haqida ma'lumotlar berib boriladi. Zero bejizga "Tarixiy xotirasiz-kelajak yo'q" deb aytilmagan. Har qanday jamiyatning istiqboli, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy kamoloti bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzARB masalaga aylangan. Bunda eng samarali vositalardan biri bu tarix fanidir. Chunki tarix-bu millatning xotirasi, o'zligini anglash va qadriyatlarini tiklash vositasi hisoblanadi. Insonlar tarix fanini o'rganish orqali o'tmishda qilingan xato va kamchiliklar turli xil fojealarmi oldini olishi va ushbu holatlar yuzasidan xulosalar chiqarishni o'rganadi. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarix fani asosan o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, Vatan qadriyatlariga ongli sadoqat, o'z mamlakati va uning tarixiga hurmat tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan. Tarix darslarida vatanparvarlik tarbiyasining o'rni va ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi. Bu fan o'quvchilarga o'z mamlakatining jamiyat tarixidagi o'rni, zamonaviy dunyoni shakllantirishdagi rolini tushunish imkonini beradi. Jamiyat tarixi va faoliyatini bilish hozirgi vaqtida sodir bo'layotgan voqeа va hodisalarни yaxshiroq tushunishga, shuningdek, asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Ushbu darslar vatanparvarlik tarbiyasi, vatanparvarlik mas'uliyati, sivilizatsiya va faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar o'z mamlakatining an'analarini, tarixiy davrlari va yutuqlari bilan tanishadilar, bu esa o'z Vatanidan g'ururlanish, uning



taqdirida ishtirok etish istagini uyg'otadi. Shuningdek, o'quvchilarda fuqarolik tuyg'usini, o'z vatanini himoya qilish va rivojlantirishga mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ular jamoada muloqot qilishni, o'z huquq va manfaatlarini himoya qilishni, faol va tashabbuskor fuqaro bo'lishni o'rganadilar Vatanparvarlik tarbiyasi Tarix fani o'qituvchilari uchun – Vatan tarixi, uning madaniyati qadr-qimmati haqidagi bilimlarni aniqlashdan boshlanadi. Ona tiliga, o'z xalqining milliy madaniyatiga muhabbat, Vatan tarixini bilish - vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Vatanni himoya qilishda xalqning qahramonligi, fidoyilik, rahm – shafqat, axloqiy poklik-bu g'oyalar zamonaviy hayotda dolzarbdir. Zamonaviy pedagogikada o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosini muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradigan ko'plab hujjatlar va materiallar mavjud. O'quvchilarda bu borada quyidagi usullardan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi: 1) O'quvchilarni ijtimoiylashtirish, fuqarolik madaniyatini shakllantirish, demokratik, huquqiy davlat qadriyatlarini bilan tanitish, va ularga fuqarolik jamiyati asoslari haqida tushunchalarini shakllantirish; 2) Vatanimiz taqdiriga daxldorlik misolida vatanparvarlik va fuqarolikni tarbiyalash; 3) O'zbek milliy tarixi va madaniyati qadriyatlarini saqlashga qaratilgan yaxlit, o'ziga xos, erkin, insonparvar shaxs sifatida axloqiy shaxs obrazini shakllantirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati orqali bilamiz, tarixning tag-tomirigacha nazar tashlaymiz". Binobarin, haqqoniy tarix dillarga hayot qonini quyuvchi, tillarga so'z baxsh etuvchi, sultanatlarni qayta yaratuvchi, o'tib ketgan asrlar silsilasini butun hayajonlari, egalari bilan ko'z o'ngimizda namoyon etib, hayotimiz sarhadlarini kengaytiruvchi mo'jizadir. Uning ma'naviy qudrati ila biz barcha kechmish zamonlarning odamlariga hamdamu hamnafas bo'amiz, ular bilan goh suyib, goh kuyib, dilimizni rag'batlantiruvchi, hislarimizga ozuqa beruvchi turli voqealar, ajabtovur fe'l - atvorlar dunyosiga oshno bo'lamiz. Yoshlarda mavkuraviy dunyoqarashini mustahkamlashda muzeylar amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bugunni ertangi kun bilan chambarchas bog'lab turuvchi ko'prik sanalgan muzeylarimiz faoliyatida ham ayrim muammolar yo'q emas. Bugun yoshlar oldidagi



dolzarb mammalardan yana biri, muzeylarimiz zahirasini boyitish uchun amaliy san'at asarlarini yig'ish, ulardagi nodirlik, noyoblik, xolisiylik, tarixiylik jihatlarini o'rGANIB chiquvchi mutaxassislarini ko'paytirish masalalaridir.[1] Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Tarixni bilmaydigan, o'z o'tmishidan saboq olmaydigan xalq hech qachon buyuk maqsadlarga erisha olmaydi"[2]. Tarix fanini chuqur o'rGANISH orqali yosh avlod o'z o'tmishini anglaydi, kelajagiga mas'uliyat bilan yondashadi. Demak, tarixni o'rgatish faqat bilim berish emas, balki ma'naviy shakllanishga xizmat qiluvchi omil sifatida qaralishi zarur.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganidek "Modomiki o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat olgan millatni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni, ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur"[3].

Tarix darslarida vatanparvarlik g'oyasini singdirish uchun quyidagi metodik yondashuvlar qo'llash mumkin:

1. Tarixiy shaxslar namunasi: Tarix darslarida buyuk ajdodlarimiz – Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bobur, Zahiriddin Muhammad Al-Xorazmiy kabi shaxslarning shuningdek, jadidlarimizning vatanparvarlik faoliyati asosida darslar tashkil etiladi. Ushbu shaxslar bizning yurtimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan, ularning amalga oshirgan ishlari katta bir jasorat hisoblanadi. Bu shaxslar faoliyatini zamonaviy qahramonlik bilan taqqoslab, yoshlar ongiga milliy g'urur singdiriladi.

Miloddan avvalgi VI asrda saklar va massagetlar Doro I boshchiligidagi qudratli qushinning kulini ko'kka sovurdilar. Yengilmas sanalgan Aleksandr Makedonskiy qushinlariga esa Markaziy Osiyo mintaqasidagi kichik bu hududni o'ziga bo'ysundirish uchun uch yil kerak bo'ldi. Markaziy Osiyo xalqlarining qurolli tuzilmalari shu kabi arab qushinlari hamda Chingizzon cheriklariga ham muvaffaqiyatli qarshi turdilar. O'zbekiston hududida tashkil topgan qo'shilmalar va qismlar Ikkinci jahon urushi paytida fashizmni tor-mor qilishda juda faol qatnashib o'zlarini misli ko'rilmagan shon-shuhratga burkadilar. Bu esa jasorat eskirmas qadriyat ekanligidan dalolat beradi.[4]



Ko‘hna tarixda Vatan uchun jon fido qilgan olovqalb ajdodlarimizning nomlari aslo unutilmaydi. Hozirgi kun yoshlariga ibrat bo‘larli umr sohibi, buyuk vatandoshlarimizdan biri Najmuddin Kubro Chingizzondek zolimning marhamatidan Vatan ozodligi yo‘lidagi kurashda qurban bo‘lishni afzal ko‘rdi va o‘zining ibratomuz fidokorligi bilan vatanparvarlik yosh tanlamasligini, yurtiga mehri kuchli inson hatto 76 yoshida ham dushmanga qarshi jang qilishga o‘zida kuch topa olishi mumkinligini isbotladiki, bu Vatanga sadoqat, xalqiga muhabbatning oliv ko‘rinishidir. Mo‘g‘ullar zulmiga qarshi kurashgan Najmuddin Kubro jasoratiga bag‘ishlab, Jaloliddin Rumi o‘z ruboysiida ‘biz o‘lganda ham o‘z e’tiqodiga sobit qoladiganlar naslidanmiz’ deb yozgan edi[5]. Ya’ni alloma bizni ajdodlarimiz hech qachon vatanga bo‘lgan sadoqatidan voz kechmaganligini aytib o‘tadi.

Xalqimizning mard, jasur, vatanparvar farzandlaridan yana biri, harb san’ati bilimdoni Jaloliddin Manguberdi esa Vatanni ozod ko‘rmoq istagida ko‘p ming sonli mo‘g‘ul lashkariga Alpomishdek na’ra tortib, hamla qildi. Garchand u dushmanni to‘la yengolmagan bo‘lsada, ularning saflarini parokandalikka uchratdi. Undagi jasorat, metin iroda, Vataniga, xalqiga bo‘lgan cheksiz muhabbat Chingizzondek sarkardani ham qoyil qoldirdi. Mirzo Ulug‘bek “To‘rt ulus tarixi” kitobida Jaloliddin Manguberdi haqida Chingizzonning quyidagi so‘zlarini keltiradi: “Otadan hali bunday o‘g‘il tug‘ilmagan. U sahroda sher kabi g‘olib, daryoda nahang kabi qudratli”, Ushbu so‘zlar buyuk mo‘g‘ul sarkardasini Jaloliddin Manguberdi jasorati va qudratiga tan bergenidan dalolat beradi. Albatta ushbu fikrlar o‘quvchilarda Jaloliddin Manguberdiga bo‘lgan g‘urur iftihor tuyg‘ularini shakllantiradi[6].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tarixiy voqealarni tahlil qilish: Vatan ozodligi va erkinligi yo‘lida olib borilgan kurashlar- Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklaridagi harakatlar, Turkiston general-gubernatorligiga qarshi kurashlar va mustaqillik davridagi siyosiy yutuqlar tarixi o‘quvchilarda o‘zlikni anglashga xizmat qiladi. Tarixiy voqealarni tahlil qilish orqali yurtimiz tarixidagi xato va kamchiliklarni oldini olish bo‘yicha mulohazalar yuritishni shakllantirib boriladi.

Interaktiv metodlar: Darslarda tarixiy rolli o‘yinlar, munozaralar, viktorinalar, esse yozish va multimedia taqdimotlaridan foydalanish orqali mavzular



qiziqarli va ta'sirchan bo'ladi[7]. O'quvchilarda o'sha davrdagi muhit sharoiti haqidagi tushunchalarni yuksaltirish orqali ularda darsga bo'lgan faollikni yanada kuchaytirish.

Mahalliy tarix asosida ta'lism: Har bir o'quvchining tug'ilgan joyi yoki yashayotgan hududi tarixidan misollar keltirish orqali ularda o'z yurti bilan faxrlanish hissi ortadi. Avvalo ushbu yo'nalishda o'quvchilarning o'zlari yashab turgan hududi ya'ni, mahalla va qishlog'i haqida ma'lumotlar olish va qo'shimcha ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir. Keyin esa yurtimizning qadimiy shaharlari Buxoro va Samarqand kabi tarixiy shaharlari haqida ma'lumotlar taqdim etish orqali o'quvchilarda yurtimizning qadimiy shaharlariga bo'lgan muhabbatni yanada kuchaytirish mumkin.

Amaliy kuzatuvarlar va metodik tajribalar asosida aniqlanishicha, tarix darslarida vatanparvarlik ruhini singdirishga yo'naltirilgan faoliyatlar quyidagi natijalarni olish mumkin:

- O'quvchilarda tarixiy ong va fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi;
- O'zbek xalqining boy tarixiy merosi haqida bilimlar ortadi;
- Milliy qadriyatlarga hurmat va iftixonor tuyg'usi kuchayadi;
- Mustaqillik g'oyasining ijtimoiy-ma'naviy asoslari chuqurroq anglaydi. Bundan tashqari mamalakatimiz mustaqilligini qo'lga kiritish yo'lidagi qahramonliklar haqida o'quvchilar tushunchalar kengayadi. Bu esa juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tarix fanini vatanparvarlik tarbiyasi vositasi sifatida qo'llash orqali maktab muhitida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit shakllanmoqda, bu esa butun ta'lim tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarix fanining yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni beqiyosdir. Tarix o'quvchilarning faqatgina bilim manbai bo'lib qolmay, balki ularning ma'naviy shakllanishida, fuqarolik pozitsiyasini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim tizimi bu jarayonda faollik ko'rsatishi zarur. Shuningdek tarixiy voqeа va hodisalarga xolis yondoshmoqlik kerak. Chunki tarixni o'rganishdagi eng asosiy yutuq bu uni xolislik asosida o'rganish hisoblanadi. Xolislik orqali o'rgatish tarixni haqiqiy g'oyalarini bilishga imkon beradi. Bu esa



o‘quvchilarda vatanparlik g‘oyalarini shakllantirishdagi asosiy bosqich hisoblanadi. Hozirgi kunda maktablarda, insitut, va boshqa ta’lim muassalarida tarix darslari o‘tilib kelinmoqda bu o‘z navbatida bolalarni o‘tmishdagi ajdodlarimiz faoliyati bilan tanishtirishda muhim hisoblanadi. Tarixdan ibrat olgan holda o‘z aql-zakovatimiz, kuch-g‘ayratimizni to‘liqroq namoyon etish vositasida intellektual salohiyatimizni xalqimiz farovonligi, yurtimiz tinchligi va osmonimiz musaffoligi, ozod va obod Vatan, erkin fuqarolik jamiyati qurish singari eng oliyjanob va ustuvor maqsadlarga yo‘naltirishimiz lozimdir. Yoshlarni tarix fani darslariga qiziqtirish orqali ularni tarixiy shaxslarning vatan ozodligi uchun olib borgan janglari, vatan ravnaqi uchun qo‘shtigan xissalarini o‘rganilishi natijasida yoshlarimiz vatanparvarlik hissi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi choralar orqali yosh avlodni vatanparvarlik, sadoqat va milliy ong asosida tarbiyalashga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘tarilamiz. Toshkent. “O‘zbekiston”. 1- jild. – bet 415.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston – yangicha tafakkur va taraqqiyot sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – bet 430.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – bet 30.
4. Sodiqov H., Yo‘ldoshev B., Inoyatov I. O‘zbekiston qurolli kuchlari (o‘tmishda va hozirda). - Toshkent: Tafakkur, 2014. – bet 248
5. Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O‘., Norqulov N. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti 1-qism. -Toshkent: Akademiya, 2000. – bet 271.
6. Sodiqov X. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent” Art Flex, 2009. – bet 54.
7. Toshtemirova S., Ilmurodova F., Sa’dullayeva M. Tarix o‘qitish metodikasi. – Toshkent: 2023. – bet 88.